

**Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens bo'yicha
bosh mutaxassisning**

LAVOZIM YO'RIQNOMASI

Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens bo'yicha bosh mutaxassisning

LAVOZIM YO'RIQNOMASI

I. Umumiy qoidalar

1.1 Mazkur yo'riqnoma 2. O'zbekiston Milliy antidoping agentligi (keyingi o'rinlarda – Agentlik) Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens bo'yicha bosh mutaxassis (keyingi o'rinlarda – Bosh mutaxassis) faoliyatining asosiy yo'nalishlari, funksiyalari, huquqlari va javobgarligini belgilaydi.

1.2 Bosh mutaxassis bevosita Agentlik direktoriga bo'ysunadi.

1.3 Bosh mutaxassis o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, Agentlik nizomi, uning ichki hujjatlari (buyruq, farmoyish, yo'riqnoma, tartib va boshqalar) va ushbu yo'riqnomaga amal qiladi.

II. Malakaviy talablar

2.1 Bosh mutaxassis lavozimiga nomzod Agentlik tomonidan O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan birgalikda o'tkaziladigan ochiq tanlov asosida ishga qabul qilinadi.

2.2 Bosh mutaxassisning lavozimidan ozod etish masalasi O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan kelishiladi.

III. Vazifa va funksiyalari

3.1. Agentlikning korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatida quyidagilar Bosh mutaxassisning asosiy vazifalari hisoblanadi:

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatini takomillashtirish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish;

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samarali ishlashini ta'minlash va nazorat qilish.

3.2. Bosh mutaxassis o'ziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va

tasdiqlash uchun Agentlik direktoriga kiritadi;

faoliyatga oid normativ-huquqiy hujjatlar va ichki idoraviy hujjatlarda aniqlangan korrupsiyaviy normalarni bartaraf qilish bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholaydi, ularning natijalari bo'yicha aniqlangan xavf-xatarlarni kamaytirish yuzasidan chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqadi va Agentlikda korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlar ro'yxatini yaratadi;

xodimlar tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlar va huquqbuzarliklar haqida kelib tushadigan murojaatlarni tahlil qiladi va ularni belgilangan tartibda ko'rib chiqilishini ta'minlaydi;

davlat xaridlarini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvini tahlil qilishda va tashkilot bilan shartnomaviy munosabatlarga (mehnat munosabatlari bundan mustasno) kirishgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxslarning ishonchliligini tekshirish jarayonida ishtirok etadi;

xodimlarga korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha tushuntirish va tavsiyalar beradi;

Agentlik faoliyatidagi korrupsiyaviy holatlarni va xavf-xatarlarni aniqlash maqsadida xodimlar orasida so'rovlar o'tkazadi;

korrupsiyaga qarshi kurashishga oid talab va normalarning buzilishi masalalari bo'yicha intizomiy javobgarlikka tortilayotgan shaxslarga jazo choralarining mutanosibligi va yetarliligini nazorat qiladi;

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Agentlikda korrupsiya faktlari yuzasidan o'tkazilgan xizmat tekshiruvlari natijalari haqidagi ma'lumotlarni tahlil qiladi;

har chorakda va Agentlik direktori talabiga ko'ra Agentlikda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar hamda ulardagi korrupsiyaviy holat haqida rahbarga ma'lumot kiritib boradi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturlarida Agentlikka yuklatilgan vazifalar ijrosini monitoring qiladi va nazoratini amalga oshiradi;

Agentlik xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv rejalarining korrupsiyaga qarshi normalarga oid qismini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

xodimlar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va tashkilotning korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha ichki hujjatlariga rioya qilinishini monitoring va nazorat qiladi;

odob-axloq komissiyalari tomonidan manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha qabul qilingan qarorlarning xolisligi va maqbulligini tekshiradi.

3.3. Bosh mutaxassis qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vazifa va funksiyalarni ham amalga oshiradi.

IV. Huquq va majburiyatlar

4.1. Bosh mutaxassis o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

o'zi faoliyat yuritayotgan Agentlik xodimlaridan ularning vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan tahliliy materiallarni, xulosalarni, statistik va boshqa ma'lumotlarni olish;

xizmat majburiyatlarini bajarish doirasida Agentlik xodimlaridan zarur yordam so'rash va olish;

Agentlik xodimlari faoliyatida aniqlangan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar yuzasidan xizmat tekshiruvlarini o'tkazish;

rahbariyatga korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;

o'z faoliyati doirasida yozma ko'rsatmalar, topshiriq xatlari va tavsiyalar berish;

tekshiruvlar o'tkazish, hujjatlarni talab qilish, xodimlardan yozma tushuntirishlar olish.

Bosh mutaxassis qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

4.2. Bosh mutaxassis o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi majburiyatlarga ega:

ushbu yo'riqnoma va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan yuklatilgan funksiyalarni zarur darajada va samarali bajarish;

qonunchilik hujjatlari talablariga qat'iy rioya qilish va o'z vakolat doirasidan chetga chiqmaslik;

Agentlikning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, odob-axloq qoidalarining korrupsiyaga oid qismining buzilganligi fakti yuzasidan tashkilot rahbariyatiga ma'lumotnomalar kiritish;

har chorakda, keyingi chorak birinchi oyining birinchi o'n kunligida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlar va chora-tadbirlar to'g'risidagi choraklik hisobotni O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga taqdim etish.


















Bosh mutaxassis qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

5.1 Bosh mutaxassis o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari, Agentlik nizomi, Agentlikning ichki hujjatlari (buyruq, farmoyish, yo‘riqnoma, tartib va boshqalar) va ushbu lavozim yo‘riqnomasiga asosan amalga oshirishga javobgar hisoblanadi.

5.3 Bosh mutaxassisni intizomiy javobgarlikka tortish O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga asosan amalga oshiriladi.

[illegible]

Tanishtiruv varaqasi

№	Xodimning familiyasi, ismi, sharifi	Sana	Imzo
1.	З.Х. Сагдулов	24.12.2025	
2.	А.Б. Солиев	24.12.2025	
3.	З.А. Акбарходжаева	24.12.2025	
4.	Б.Б. Турсунов	24.12.2025	
5.	Х.Р. Оминов	24.12.2025	
6.	Д.О. Чиркова	24.12.2025	
7.	Н.Ш. Исхонматов	24.12.2025	
8.	Т.З. Каримов	24.12.2025	
9.	Р.М. Разлидиров	24.12.2025	
10.	М.Х. Хамидова	24.12.2025	
11.	Д.А. Давронова	24.12.2025	
12.	З.Э. Кодинова	24.12.2025	
13.	Л.А. Хошимов	24.12.2025	
14.	М.Ш. Тюрин	24.12.2025	
15.	А.Д. Абдурахарова	24.12.2025	
16.	Н.Х. Ахмедов	24.12.2025	
17.	У.Бурханов	24.12.2025	
18.	Т. Мирзамирова	24.12.2025	
19.			
20.			
21.			
22.			
23.			
24.			
25.			
26.			
27.			
28.			
29.			
30.			
31.			
32.			
33.			